

## OILA MAKTAB VA MAHALLADA O'QUVCHILAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISH

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
pedagogika yo'nalishi 1-22-guruh talabasi*

***Toxirova Xadicha***

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
pedagogika yo'nalishi 1-22-guruh talabasi*

***Temirova Safinabonu***

### ANNOTATSIYA

Annotatsiya: ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, zamonaviy shaxsni tarbiyalash, oila mahalla va maktab faoliyatini birgalikda qo'llash orqali yetuk shaxslarni yurtimizga yetkazib berish. Oila va maktab hamkorligi o'rtasidagi vazifalarni to'g'ri yo'lga qo'yish.

**Kalit so'zlar:** oila, mahalla, jamiyat, ta'lim, shaxs, milliy mafkura, oila va maktab hamkorligi, tarbiya, "oila mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" konsepsiyasi

Yurt boshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shunday deganlar "Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman deganlar. O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, farzandlarni ma'naviy-axloqiy milliy madaniy, tarixiy an'alariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslanib, zamonaviy shaxsni shakllantirish ota-onalar, maktab, mahallalarning oldida turgan eng asosiy ma'suliyatli vazifalardan sanaladi. Milliy mafkuramiz va qadriyatlarimiz xalqimizning maqsad muddaolarini ifodalaydi. Farzandlar oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoada anglaydi. Ular ongiga dastlabki ma'naviy-axloqiy bilimlarni singdirishda oilaning ayniqsa, ta'lim-tarbiya muassasalarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi va unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'yi harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" Kontsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar qilib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida dasturulamal bo'ldi. Davlat dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat va jamoat tashkilotlarining mustahkam hamkorligi, ta'lim muassasalari mutaxassislari, oilalar, mahalla faollari, umuman

barcha fuqarolarning faol ishtirokini taqozo etadi. Bolalar — kelajagimiz ekan, ularni ham jismonan, ruhan, ham ma'nan sog'lom bo'lib kamolga yetkazish asosiy vazifamizdir.

Oila va maktab hamkorligi asosida o'quvchilar shaxshini shakllantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- turar joyda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi - maktab bo'lishiga erishish;
- o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish;
- ta'lim muassasalari nizomlari asosida o'quvchilar ning maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va nizomda belgilangan o'quvchilar libosida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishlarini ta'minlash;
- mahallada, xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, o'smir yoshlarning dunyoviy bilimlarga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish;
- maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "Ota-onalar universitetlari" faoliyatini tashkil qilish.

Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustaxkam boglamayturib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Mahalla sog'lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida ma'naviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlar kamol topishida mahallaning o'rni beqiyos. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalash maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda ,oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekan,tarbiyaning ham asosiy o'chog'i oiladir. Bola tug'ilibdiki,unga tarbiya oiladan berib boriladi . Bola shaxs sifatida rivojlanishi davomida unga atrof muhit tarbiyasi o'z ta'sirini o'tkazadi. Shaxsga atrof-muhitning salbiy oqibatlari ta'sir etishini istamasangiz bolaning tarbiyasini mukammal qilishimiz kerakligini unutmasligimiz lozim.Jamiyatning jadal

rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko'rsatayotgan ko'rinmas ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatleri kundalik hayet ehtiyejga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To'g'r, bunda ijtimoiy tarbiyaning o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning birligiga, o'zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Oilaviy tarbiya pedagogika fanida murakkab muammolardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos ibtidoiy guruh bo'lib, tarbiyada faqat mazkur guruhga xos xususiyatlarga asoslanadi. Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulugbek shunday deganlar: "Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim". Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obo' olib keladigan yuzlarini yorug va boshlarini yuqori qiladigan farzand bo'lib ulgayishadi. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan xalqimiz o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosga ega. Bu meros bugungi avlodni, insonparvarlik, mehr- muhabbat, oqibat, vatanparvarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Xozrgi kunda bola tarbiyasiga, ularni jahon talablariga mos bilim olishlariga, hunar egallashlari, har tomonlama yetuk inson bo'lib voyaga yetishlariga ota-onalar ma'suldirlar. Tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent: "O'zbekiston" 2017.
2. Milinorov, X. X., and D. N. Eshmuratova. "THE ROLE OF UZBEK TRADITIONS, CEREMONIES AND CUSTOMS IN PERSONALITY DEVELOPMENT." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.
3. Shavkat, Khaydarov, and Khuzhaniyozov Bakhrom. "ON THE IMPORTANCE OF ETHNOPEDEAGOGICAL TRADITIONS IN THE UZBEK PEOPLE." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 210-214.
4. Isakhodjayev, Kh, et al. "Cooling air in contact with natural sources of cold." *E3S Web of Conferences*. Vol. 383. EDP Sciences, 2023.
5. Лапп, Елена Александровна, Елена Викторовна Шипилова, and Акрам Рустамович Сохибов. "ПРОЕКТИРОВАНИЕ И СОПРОВОЖДЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МАРШРУТОВ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ:

- РАБОЧАЯ ПРОГРАММА КУРСА." *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ*. 2021.
6. Sokhibov, Akmal. "Economic and Political Restraints for Reducing the Drug Economy in Afghanistan." *Sicherheit und Frieden (S+ F)/Security and Peace* (2014): 193-200.
  7. Rustamovich, Sohibov Akram. "Using A Modular Approach in the Credit System of Education." *Academicia Globe* 2.6 (2021): 391-394.
  8. Сохибов, Акрам Рустамович. "Формирование организаторских способностей молодёжи Республики Узбекистан." *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов* 9 (2016): 71-73.
  9. Сохибов, Акрам Рустамович. "MODERN METHODOLOGICAL BASES OF HIGHER EDUKAION MANAGEMENT IN THI ERA OF DIGITISATION: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.018> Soxibov Akram Rustamovich PhD Associate Professor of the Department of Pedagogy Karshi State University." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 10 (2022): 169-176.
  10. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo 'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 305-312.
  11. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 296-304.
  12. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
  13. Jalolova, P. M., and Yo D. Odilov. "Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies." *SCIENCE AND WORLD* (2013): 20.
  14. Jalolova, P. "USE OF ICT TOOLS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING PHYSICS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS." *Science and innovation* 2.B5 (2023): 393-401.
  15. Jalolova, Pokiza, and Yorkin Odilov. "CALCULATION AND MODELING ENERGY LEVELS IN THE ATOM ON THE BASIS OF INFORMATION TECHNOLOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).
  16. Jalolova, Pokiza. "Theoretical-methodological aspects of quantum physics section in the credit module system." *Solid State Technology* 63.6 (2020): 152-158.

17. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "TALABALARDA MUAMMOLI TA'LIM JARAYONINI RIVOJLAHTIRISH TEXNOLOGIYASI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 163-170.
18. Khaidarov, Sh. "MOTIVATION OF PEDAGOGICAL BACHELORATE GRADUATES FOR PROFESSIONAL TEACHING ACTIVITIES." *Science and innovation* 2.B12 (2023): 892-895.
19. Khaydarov Shavkat Khuzhaniyozov Bakhrom. "On The Importance Of Ethnopedagogical Traditions In The Uzbek People" 2. 2024/5:c 210-214
20. Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогики в узбекском народном традиции." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 286-291.
21. Ochilova, N., and Bahrom Xo'janiyozov. "TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI." *Results of National Scientific Research International Journal* 1.7 (2022): 339-343.
22. Hujaniyozov, B. "ORGANIZATION OF THE FORMATION OF HISTORICAL THINKING OF SCHOOLCHILDREN IN AN EDUCATIONAL ORGANIZATION." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 292-295.
23. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "PEDAGOGIKANING INSON VA UNING SHAXSINI SHAKLLANTIRADIGAN ORNI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 145-151.
24. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "BOSHLANG 'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG 'OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 158-162.